



KOMMUNIKATIV NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY ASOSLARI

Baxriyeva Sitora Xayrullo qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola kommunikativ nutqni rivojlantirishning amaliy asoslari faol o'qitish usullari, interaktiv mashg'ulotlar, hamkorlikdagi faoliyat va ta'lim jarayonining izchilligiga asoslanadi. Bu o'quvchining ta'lim va ijtimoiy tajribasini hisobga olgan holda, amaliy vazifalarni bajarish orqali nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning tarkibiy, model, ishlab chiqilgan bo'lib, u o'quvchilarning ta'lim va ijtimoiy tajribasini, o'qitishning faol usullarini hisobga olgan holda faoliyat, izchillik tamoyillariga asoslanadi va tarkibiy qismlardan iborat: maqsadni belgilash, tashkiliy - metodologik, samarali baholaydi.

Kalit so'zlar: nutqning kommunikativ vazifasi, og'zaki nutq, grammatika, innovatsion o'yinlar, talabalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish, kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, lingvistik kompetensiya.

Аннотация. В статье рассматриваются практические основы развития коммуникативной речи, основанные на активных методах обучения, интерактивных занятиях, совместной деятельности и системности учебного процесса. Она направлена на формирование речевых навыков посредством выполнения практических заданий с учетом учебного и социального опыта обучающихся. Разработана структурно-модельная модель формирования коммуникативной компетенции, которая основана на принципах активности, системности, системности, учета учебного и социального опыта обучающихся, активных методов обучения и состоит из компонентов: целеполагания, организационно-методического, результативного контроля.

Ключевые слова: коммуникативная функция речи, устная речь, грамматика, инновационные игры, обучение студентов разговорной речи, компетентность, коммуникативная компетентность, прагматическая компетентность, языковая компетентность.

Annotation. This article is based on the practical foundations of the development of communicative speech, based on active teaching methods, interactive classes, collaborative activities and the consistency of the educational process. It is aimed at the formation of speech skills through the performance of practical tasks, taking into account the educational and social experience of the student. A structural, model, model of the formation of communicative competence has been developed, which is based on the principles of activity, consistency, taking into account the educational and social experience of students, active teaching methods and consists of components: goal-setting, organizational-methodological, effective assessment.

Key words: communicative function of speech, oral speech, grammar, innovative games, teaching students to colloquial speech, competence, communicative competence, pragmatic competence, linguistic competence.



KIRISH

Ijtimoiy va iqtisodiy hayot, fan va texnikaning ilgarilab ketishi natijasida deyarli barcha mamlakatda bolalar turli xil gadjetlar va internet taʼsirida ulgʻaymoqdalar. Bu bir tomondan ularning aqliy rivojlanishi, tafakkurining oʻsishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Ikkinchi tomondan esa ularni atrofdagilar, tengdoshlari bilan muloqot jarayoniga koʻrinmas toʻsiq qoʻyadi. Negaki, hozirda muloqotning yangi koʻrinishi “onlayn muloqot” vujudga kelgan. “Onlayn muloqot”da esa turli xil tasvir va simvollardan keng foydalanishi natijasida jonli muloqotda muhim ahamiyatga ega boʻlgan hissiyot, mimika, pantomimika, taʼsirchanlik kabilar yuzaga chiqmaydi. Natijada esa bolalarda muloqotchanlik koʻnikmasi juda sekin rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bolalarni erkin va kreativ fikrlaydigan, atrofdagilar bilan qiynalmay muloqot qila oladigan, oʻz ona tilini sevadigan, oʻzligini anglaydigan, maʼnaviy yetuk, oʻtkir zehn egalari qilib tarbiyalash juda muhim. Koʻzlangan maqsadga erishish uchun milliy oʻzligimiz timsoli, maʼnaviyatimiz asosi boʻlgan ona tilimizga boʻlgan eʼtiborni yanada kuchaytirish, uni rivojlantirish, boyitish uchun aniq vazifalarni belgilab olish olish lozim.

Eng avvalo, nutq oʻstirish oʻzining butun mazmuni bilan talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari nutq oʻstirish talabalar tomonidan ogʻzaki nutqni oʻzlashtirish toʻgʻrisidagi psixologiya fani maʼlumotlari, insonning bilish faoliyatining xususiyatlari toʻgʻrisidagi nazariyaga asoslangan. Shuningdek, nutq oʻstirish talabalarning rivojlanishda nutq faoliyatining roli toʻgʻrisidagi nazariyaga asoslangan didaktik prinsiplarga ham tayanadi: oliy oʻquv yurtlarida nutq oʻstirish har bir guruhda quyidagi bilimlardan iborat qilib tuzilgan:

1. Talabalarni tevarak - atrof bilan tanishtirish, nutq oʻstirish, chet tili lugʻatini boyitish.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.

a) Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.

b) Chet tilida soʻzlashuv nutqini (*dialog*) shakllantirish.

c) Chet el badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Oʻqituvchi nutq oʻstirishga oid adabiyotlar boʻlimlarini va har bir boʻlim talabalarini yaxshi va uning mazmunini aniq belgilab olish malakasini egallagan boʻlishi kerak.

METODOLOGIYA

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda oʻzaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga



amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bugungi kunga qadar “kommunikativ kompetesiya” tushunchasiga bir qancha chet el va mahalliy pedagoglar tomonidan turlicha ta’riflar berilgan. Rus pedagogigi S.A.Gilmanova o‘zining ilmiy faoliyatida nolingvistik fakulteti talabalarining chet tilidan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shartlarini tahlil qilgan va ko‘plab ta’riflarni keltirgan.

Pedagogika fanlari nomzodi E.I.Litnevskaya “kommunikativ kompetesiya” atamasiga *“nutq faoliyatining barcha turlarini hamda og‘zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma’lum bir yosh uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan muloqot sohalari va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko‘nikmalari va malakalarini egallash”* deb ta’rif beradi.

Bizning fikrimizcha esa, kommunikativ kompetesiya – bu o‘quvchilarning o‘zgalar nutqini tushunishi, o‘zining og‘zaki va yozma, ichki va tashqi nutqiga ega bo‘lishi, nutq vaziyatiga mos bo‘lgan fikrlarni ayta olishi, turli xil nutqiy vaziyatlardan chiqib keta olish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishidir.

Kommunikativ kompetesiya nafaqat chet tillarini, balki ona tilini o‘rganish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biridir. Fikrimiz dalili sifatida shuni aytishimiz mumkinki, *“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tizimlarida ona tili fanining uzviyligini ta’minlash konsepsiyasi”*da ona tili fani orqali o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (*kommunikativ*) kompetesiya rivojlantirilishi ta’kidlangan.

O‘quvchilarda kommunikativlik kompetensiyasini shakllantirishning yana bir muhim xususiyati shundaki, Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra ona tilidan o‘quvchilarda fanga oid lingvistik kompetensiyalarni tarkib toptirish lozimligi belgilangan. Lingvistik kompetesiya esa kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Shunday ekan, o‘quvchilarning lingvistik malakalarini rivojlantirish kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Lingvistik kompetenlikka ega bo‘lgan o‘quvchi pragmatik kompetensiyaga, ya’ni turli xil nutq vaziyatlaridan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, har uchala kompetesiya bir biri bilan bog‘liq. Ularning o‘zaro bog‘liqligini quyidagi chizmada ko‘rish mumkin:



1-chizma. Kommunikativ, lingvistik va pragmatik kompetensiyaning o'zaro bog'liqligi

Kommunikativ kompetensiyaning zarur darajasi o'qitish bosqichi va maqsadi bilan belgilanadi. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ta'limning har bir bosqichida alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning yoshi ulg'aygan sari ularning kompetentligiga qo'yilgan talab ham ortib boraveradi. Bundan tashqari dars jarayonidagi tillararo integratsiya kommunikativ kompetensiyani, ya'ni ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda xorijiy tilda muloqotga kirisha olish layoqatini yanada rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilmay turib natijaga erishish qiyin. Ular quyidagilar:

- *o'quvchilardagi qo'rquv hissi.* Qo'rquv hissi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ko'rsatishga halaqit beradi. Ichki qo'rquvga ega bo'lgan o'quvchilarni doimo "xato qilib qo'ysamchi?", "mening fikrim xato bo'lsachi?" kabi savollar qiynaydi.

- *o'quvchining tortinchoqligi.* Odatda, tortinchoq o'quvchilar muloqot jarayonida juda passiv bo'ladilar. Ularda tortinchoqlik bolalikda paydo bo'ladi. Agar bunday o'quvchilarda muloqotchanlik ko'nikmasi to'g'ri shakllantirilmasa, ularda tortinchoqlik uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin.

- o'quvchining darsdagi nafaolligi;
- o'quvchilarning o'z shevasida gapirishi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ulani o'qish, yozish, gapirish va tinglashga o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Savod o'rgatish davridan boshlab to'rtala yo'nalish ham parallel ravishda olib boriladi. Bu turli xil mashqlar bilan tizimli ravishda ishlash orqali amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqotchanlikni shakllantirishda kommunikativ mashqlar yetakchilik qiladi. Kommunikativ mashqlar nutq malakalarini shakllantirish va til bo'yicha amaliy bilimlarning eng yuqori darajasini ta'minlaydigan ijodiy mashq turi.



Shuning uchun ham darsda nutqning grammatik tuzulishini egallash bo'yicha ish mazmuni har bir chet tilini o'rganuvchi guruhlarda talabalarning kursi va individual xususiyatlarini hisobga olagan holda belgilangan. Birinchi kursda talablarga asosan sodda gaplar tuzilishi va ularning qo'llanilishi haqida bilim berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalar oliy o'quv yurtlariga chet tilining Grammatik xususiyatlarini chuqur o'zlashtirgan holda kelishiga qaramay ular mazkur bilimlarini ba'zan og'zaki nutqda amalda qo'llay olmaslik holati kuzatiladi.

Uchinchi to'rtinchi kurslarda nutqning grammatik tuzulishini shakllantirish bo'yicha dastur vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashishi bilan ajralib turadi. Ushbu guruhdagi talabalarni o'z nutqlarida uyushiq bo'laklari, yoyiq va qo'shma gaplarning turli xillarida (*bo'lgan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap*), ko'makchi, bog'lovchi va ravishda foydalanishga o'rgatish, chet tilidagi til birliklarini to'g'ri ishlatish kabi malakalar takomillashtiriladi.

Nutqning tovush madaniyatining shakllantirish - chet tilida nutqni o'stirishning eng asosiy hossalardan biri. Tovush va to'g'ri talaffuz chet tilidagi barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz etilishini, diksiya hamda intonatsiyaning ifodaliligini, so'zlashgan vaqtda to'g'ri nafas olish va chiqarishni, ovoz toni va tempini tartibga solishni o'z ichiga oladi.

Talabalarni chet tilida aniq, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirishga, so'zlarni dona - dona talaffuz qilishga, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga, intonatsiya vositalaridan to'g'ri foydalanishi amalga oshirishni belgilab beradi. Oliy ta'limda chet tilini o'rgatish vazifalari har bir guruhda, talabalarning kursi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilib boriladi. Zeroki talabalarda tilni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lishi mumkin.

Talabalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish. Talabalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish bo'yicha dastur ishlab chiqilishi lozim bo'ladi. So'roq gap turlariga binoan chet tilida savollar oldindan tayyorlanishi tavsiya etiladi. Ularni butun guruh uchun berilgan savollarga bitta bittadan javob berishga, jamoa bo'lib so'zlashishiga, suhbatda qatnashishga, o'rtoqlarning javobini qunt bilan tinglash va o'zi ham savol berishga o'rgatilishi ularda chet tilidagi nutqning samarali darajada o'zgarishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, chet tili o'qituvchilari bilan so'zlashganda samimiy, mazmunli gapirish kabi ijobiy hislatlar ham tarbiyalanib boriladi.

Chet el badiiy adabiyotlari bilan tanishtirish. Talabalarni chet tilidagi badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini va muhabbatlarini o'stirish va rivojlantirish maqsadida darslarda B1 darajadagi hikoyalar, she'rlar talabalarga o'qib beriladi, ertaklar hikoya qilib beriladi, she'rlar yod oldiriladi. Kitobdagi rasmlarni ko'rib chiqib, uni chet tilida to'g'ri tasvirlab berish, asar mazmunini tushunib olish,



qahramonlarning xatti harakatlarini baholay olish, badiiy soʻz jozibasini tarbiyalash kabi vazifalar oliy taʼlim dasturlarida koʻrsatilgan.

Oliy oʻquv yurtlarida chet tilini oʻrgatish va shu orqali talabalarning ogʻzaki nutqini rivojlantirishga asoslanganligidir.

Chet tilini oʻrgatishga moslashtirilgan oliy taʼlim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri boʻlgan talabalarni chet tilida toʻgʻri va aniq gapirishga, yaʼni chet ellik sayyohlar, vakllar bilan turli faoliyatlarda, mehnat jarayonida, kundalik tartib daqiqalarda erkin, toʻgʻri munosabatda boʻlishga oʻrgatishga katta ahamiyat berilgan.

Talaba nutqini rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri bu taʼlim. Taʼlimning asosiy shakli amaliy mashgʻulotdir. Chet tilida nutq oʻstirish amaliy mashgʻulotlarida talaba oʻz nutqining oʻqituvchining namunaviy nutqi bilan taqqoslashga, boshqa talabalar bilan oʻquv materiallarni bajarishga, yaʼni oʻqituvchining tushuntirishini, hikoyasini tinglashga, birgalikda kuylashga maʼlum bir obʻektga diqqatini qarata olishga, navbat bilan gapirishga oʻrgatadi.

Chet tilini oʻrgatish mashgʻulotining didaktik maqsadga koʻra quyidagi tiplarni koʻrsatish mumkin: yangi materiallarni bayon etuvchi mashgʻulotlar, bilim, malaka va koʻnikmalarni mustahkamlovchi mashgʻulotlar, bilimlarni umumlashtiruvchi, bir tizimga soluvchi mashgʻulotlar, yakunlovchi yoki tekshiruvchi - hisobga oluvchi - sinovchi aralash mashgʻulotlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Chet tili oʻqitishga moʻljallangan oliy oʻquv yurtlarida koʻproq aralash turdagi mashgʻulotlardan foydalanish joriy qilingan. Masalan, bir mashgʻulotning oʻzida talabalarni yangi bilim beruvchi material bilan tanishtiriladi ilgari hosil qilingan bilim takrorlanadi va mustahkamlanadi. Nutq oʻstirish mashgʻulotlarni oʻziga hos husisiyatlarga ega boʻlib, ayrim vaqtlarda mashgʻulotni oʻtkazishda qiyinchiliklar vujudaga keladi.

Har bir oʻqituvchi mashgʻulotlarni tashkil etishda quyidagi didaktik talablarga qatʼiy rioya qilish lozim:

1. Mashgʻulotga oldindan puxta tayyorlanish, uning mazmunini, taʼlim usullarin aniqlash.
2. Aqliy ish bilan bandlik yukini taqsimlash (*aqliy zoʻriqishni oldindan belgilash*). Oʻqituvchi taʼlimning rivojlantiruvchi tamoyilga amal qilib, talabalardan aqliy faollikni talab etuvchi, murakkab vazifalar beradi.
3. Mashgʻulotlarning tarbiyaviy xarakteriga ega boʻlish.



4. Mashg'ulotlarning jo'shqinlik xarakteriga ega bo'lish. Mashg'ulotni boshlashdan avval talabalarda bilim olish istgini qiziquvchanligini, yangilikni bilib olishga ishtiyoqni vujudga keltirish kerak.

5. Ta'lim usullarini mashg'ulotning tuzishga qarab tanlash. Mashg'ulotning tuzilishi avvaldan aniq qilib belgilab qo'yilishi kerak. Mashg'ulotning boshida yangi material bilan tanishtirishda avvalgi mashg'ulotlarda o'rganilgan materiallar esga olinib, uni talabalar o'qituvchisi bilan bog'lanadi.

Mashg'ulotlarning boshlanish qismini ta'sirli qiziqarli qilib tashkil etish uning keyingi qismlariga ham talabalarda qiziqish uygo'tib, diqqatining barqarorligini ta'minlaydi. Shuning uchun chet tili darslarida interfaol o'yinlardan foydalanib o'tkazilishi sarador usul hisoblanadi.

Mashg'ulotning yakuniy qismi qisqa va jo'shqinligi bilan ajralib turish kerak, ya'ni mashg'ulotda o'zlashtirilgan materialni mustahkamlash uchun mavzuga yaqin bo'lgan badiiy asarlar boshini o'qib berish, she'r aytib berish, topishmoq aytish didaktik o'yin kabi usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. Mashg'ulotlarning hamma bosqichlarida har bir bolaning nutqiy faoligini o'stirish. "Nutqiy faollik" bolaning butun mashg'ulot davomida hammaga eshitiladigan qilib gapirishga emas, balki pedagogning va tengdoshlarining nutqini faol tarzda idrok qilishi va uni tushunishi demakdir. To'g'ri tanlangan va tuzilgan savollar, topshiriqlar ham nutq faoligini ta'minlovchi vositalardan biridir. O'qituvchi savollar topshiriqlar berganda, guruhdagi hamma talabalarga qarata murojat etadi, zarur bo'lganda uni takrorlaydi, javob beruvchiga baland, aniq, hammaga tushunarli qilib gapirish kerakligi haqida ko'rsatma beradi, nutqiy rivojlanish har hil darajada bo'lgan talabalardan navbatma-navbat so'raydi, bir boladan bir necha bor so'rayvermaydi, guruhdagi talabalarga javobi berayotgan bolaning tug'ri yoki notug'ri ekanligini nazorat qilib berishini, ularga savol bilan murojat etadi: u to'g'ri va to'liq javob berdimi? yana nimalar haqida gapirishi kerak edi? Tartib bilan so'zlab berdimi? va hokazo.

7. Ta'limning kollektiv - jamoa kasb etishini talabalarga individual yondoshish bilan birga qo'shib olib boorish ishning frontal shakli - bu umumiy topshiriqlar, umumiy ritm jo'r bo'lib javob berish va h.k bo'lar esa o'z navbatida talabalarga beriladigan alohida topshiriqlar bilan qo'shib olib boriladi. O'qituvchi yakka (*invudual*) topshiriq va usullarni tanlashda talabaning bilimi darajasini va nutqini malakasini, qiziqishini hisobga olishi kerak.

Ayniqsa targiyachi mashg'ulotda nutqi rivojlanmagan talabalarga alohida e'tbor qaratishi kerak. Shunindek, indamas, muloqat qilishni istamaydigan, o'zini tutib tura olmaydigan, ezma talabalarga yakkama-yakka yondoshishi lozim.



8. Mashg'ulot natijalarini hisobga olish. O'qituvchi mashg'ulot vaqtida bola nutqini kuzatib, uning javobini hisobga olib boruvchi daftarga belgilab qo'yadi. Bu o'qituvchi uchun kelbusi ish vazifalarini belgilab olishda yordam beradi.

9. O'tilgan materyalni boshqa mashg'ulotlardan yoki boshqa favoliyatlarda mustahkamlash. Bu talabga rioya qilish juda muhimdir. Chunki talabalar nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ish jarayonida mutakkab aqliy ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Bu o'z navbatida bolaning turli favoliyalarini tashkil etishda nutqining juda kattaligidan dalolat.

Birgina mashg'ulot orqali hamma nutqiy vazifalarni (*dastur talabarini*) amalga oshirib bo'lmaydi. Masalan maishiy favoliyatiga, tabiat hodisalariga, qo'l mehnati va tabiatdan mehnatga talluqli so'zlar faqat taniiy holda, talabalarning shaxsan ishtiroklashi jarayonida ular lug'atga kiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til ta'limi jarayonida o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Bunda ona tili darslari "muloqot darslarga" aylanmog'i lozim. Buning uchun esa har bir darsning eng katta qismi kommunikativ mashqlarga ajratilishi kerak. Kommunikativ mashqlar qanchalik xilma-xil va mazmunli, aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, o'quvchilar shunchalik muloqotchanligi ortadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ne'matov G.,, Hamroeva Sh. Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari. - Buxoro, 2004.-143 b.
2. O'rinboev B. O'zbek so'zlashuv nutqi. -T., 1982. -152 b.
3. Александрова О.В. Некоторые вопросы логики, методологии и философии языка // вопросы Языка знания. -1985. - 72-73 с.
4. Begmuradovich, S. A. (2025). The usage of modern educational technologies in teaching a foreign language in higher educational institutions. Ta'lim, tarbiya va innovatsiya-lar jurnali, 1(2), 180-184.
5. Begmuradovich, S. A. (2023). Integration of educational process forms. Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar/ journal of pedagogy, psychology and social research,2(2), 20-23.